

## ALISHER NAVOIY MA'NAVIY SIYMOSINI YARATISH TAJRIBALARI

*Xolyigitova Iroda*

*Shayxontohur tumani kasb-hunar maktabining*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu, maqolada Alisher Navoiyning “ma’naviy siymosi” va uning yaratish tajribasi haqida ma’lumot berilgan. “Ma’naviy siymosi” milliy, madaniy, adabiy va falsafiy asosilarga asoslangan bo’sa-da, uning tasvir qilgan insoniy mazmunida ko’p yillik jahon adabiyoti tarixida ham ajralib turadi.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O’zbek Navoiy o’qimay qo’ysa, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Shamsiddin Sharofiddin o’g’li Xurshid, Samarqand sayqali, Alisherbek va Husayn.

Mustaqillik yillarida ajdodlar nomini abadiylashtirish va ularning ijodiy merosini chuqur o’rganish masalasi kun tartibiga ko’tarildi. Sobiq tuzum davrida biryoqlama talqin etilgan ajdodlarimiz nomi oqlandi, ularga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ko’rsatish qadriyat darajasiga ko’tarildi. Ushbu jarayonning bosh leytmotivi vazifasini adabiyot bajardi, bunday o’rinda tarixiy haqiqat tushunchasi badiiy haqiqat bilan uyg’un yoki farqli kelgan jihatlar haqida gapirish lozim bo’ladi. Lekin tarixiy shaxslar haqida yaratilgan adabiy asarlarning bosh maqsadi – tarixiy shaxslarning ibratli va shonli hayot yo’li, ijodini, ma’naviy portretini xalqimizga tanitishdan iborat bo’ldi, desak, yanglishmagan bo’lamiz. Alisher Navoiy o’zining faoliyati va olijanob insoniy fazilatlarini bilan hayotligi vaqtidayoq juda katta obro’ va hurmatga sazovor bo’lgan. Shuning uchun uning hayoti, faoliyati, ilmiy va adabiy merosini o’rganish, shaxsiy fazilatlarini yoritish, unga baho berish, uni ibrat-namuna sifatida e’tirof etib keng targ’ib etish o’sha vaqtdan, ya’ni XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Alisher Navoiy siymosi insonning hayoti va ijodi haqida ilk ma’lumot beruvchi manba bu, shubhasiz, ulug’ shoirning o’z asarlaridir. Shoir garchi o’z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo’lsa-da, lekin Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulug’ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munjojt”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog’liq ma’lumotlarni uchratish mumkin.

O’tgan asr davomida va mustaqillik yillarida o’zbek adabiyotida ham Alisher Navoiy ma’naviy portretini yaratishga jiddiy urinishlarni ko’rishimiz mumkin. Navoiy

siymosi xususida adabiyotning uchala turida hajman ham, ma'no tomonidan ham turli darajadagi asarlar yaratildi. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan yirik she'riy asarlar qatoriga Barot Boyqobilovning "Sokin Xuroson", "Notinch Xuroson", "Shukuhli karvon", "Qonli Xuroson" va "Hayrat ul-Ahror" she'riy romanlarini kiritish mumkin. Ushbu asarlar she'riy yo'lda yozilgan bo'lishiga qaramay, Alisher Navoiy ma'naviy portretini yaratish yo'lida jiddiy va salmoqli urinishlardan biri bo'ldi.

O'tgan asrning 30-yillarida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek "Navoiy" nomli poema yozdi. Ushbu asar keyinchalik Oybekning Navoiy hayotiga bag'ishlangan yirik nasriy asarlariga "xamirturush" vazifasini o'tadi. Bular: "Alisherning bolaligi" qissasi hamda "Navoiy" romanidir. Oybekning ushbu romanida Alisher Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi ijtimoiy hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Oybek bu asarning yaratilishi haqida o'z tarjimai holida quyidagicha yozgan edi: «Navoiy obrazi mening ko'pgina lirik she'rlarimda naydo bo'ldi va nihoyat, 1942 yilda «Navoiy» romanini tamomladim». Bu asar turli muhokamalardan so'ng 1944 yilda nashr etilgan. Oybek bu romanda o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, Alisher Navoiy obrazini yaratadi. Shuningdek, butun umri davomida tarixiy asarlar ijod qilgan yozuvchi Mirkarim Osim Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida so'zlovchi "Astrobod", "Alisher Navoiy va Darveshali", "Badarg'a", "Navoiyning xislatlari", "Ulug'bek va Navoiy" kabi hikoyalar yozadi. Keyinchalik Alisher Navoiyning bolaligi haqida "Zulmat ichra nur" nomli qissani yaratadi. Mirkarim Osim tarixiy hikoyalari tarixiy manbalar asosida yozilgan va badiiylashtirilgan asarlardir. Muallif asarda badiiy to'qimalarga keng o'rin bermaydi. Tarixchi o'laroq, voqeani badiiyat bilan hikoya qilib beradi. O'tgan asrda yaratilgan tarixiy romanlarda biz badiiy to'qimaga keng o'rin berilganiga guvoh bo'lamiz. Badiiy haqiqat tarixiy haqiqatga zid kelmasa, asarning qiziqarliligini oshiradi. Tarixiy-biografik ko'rinishdagi "Zulmat ichra nur" asarida Mirkarim Osim Alisher Navoiyning bolaligi manzaralarini badiiy yo'sinda aks ettirish orqali ulug' ijodkorning ma'naviy-ruhiy quvvatining ildizini topishga harakat qiladi va buni o'quvchiga taqdim etadi. Yozuvchi Omon Muxtor o'tgan asr oxirida "Ishq ahli" nomli roman yozib, bu asarda Navoiy siymosini arxitektor yigit nigohi orqali badiiy talqin qiladi. Ushbu asarlar Navoiy siymosi haqida turli darajada tasavvur beradi, o'quvchining Navoiy haqida tasavvurini chegaralab qo'ymaydi. Biz o'rganishni maqsad qilgan jihat esa o'zbek dramaturgiyasida Navoiy obrazining aks ettirilishi masalasidir.

Qolaversa, o'tgan asrda Navoiy siymosini ekran san'atiga ko'chirish yo'lida ham ma'lum bir ijodiy ishlar amalga oshirildi. Bu 1947 yilda kinorejissor Komil Yormatov tomonidan suratga olingan Alisher Navoiy hayotiga bag'ishlangan "Alisher Navoiy" tarixiy-badiiy filmidir. Filmga ma'lum ma'noda Izzat Sulton hamda Uyg'un tomonidan yozilgan "Alisher Navoiy" dramasi asos bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy kinokartinning ssenariysini Izzat Sulton, Viktor Shklovskiy, Aleksey Speshnyov

hamda Uyg'un hammualliflikda yozishgan. Film syujetiga ko'ra, Alisher Navoiy shahzoda Husayn Boyqaro bilan talabalik davridan beri do'st bo'lib keladi. Taxtga o'tirgandan so'ng, Alisher Sulton Husaynga davlatni boshqarishda yordam beradi. Muvaffaqiyatli urushlar davridan so'ng, notinchlik yuzaga keladi. Ko'p o'tmay, Sultonning qarindoshi shahzoda Yodgor isyon ko'tarib, to'g'onni buzib tashlaydi va dehqonlarni suvdan mahrum qiladi. Jang oldidan vazir Majididdin vatanga xiyonat qiladi, ammo Alisher o'ylagan jang taktikasi tufayli jangda Boyqaro g'alaba qozonadi. Tez orada Yodgor Hirot qal'asini egallaydi. Husayn o'z do'stining vazirning maslahatiga amal qilib, qo'shinni jalb qilishga ikkilanib qoladi. Yodgor isyoni bostirilgani bilan mamlakatdagi tinchlik barqarorlashmaydi. Dehqonlar va hunarmandlar Hirotida soliq to'lashni to'xtatadilar va qurollanib, shahar darvozalarini yopadilar. Husayn Boyqaro dastlab shaharni zo'rlik bilan olishga qaror qiladi, ammo buning o'rniga Alisherni adolat o'rnatish maqsadida qal'aga yuboradi. Navoiy vaziyatni izga tushiradi. Ammo beklar Husayndan Alisherni o'z vazifasidan olib tashlashni talab qilishadi. So'rovni bajarish uchun Guli ismli qizni Sultonga sovg'a sifatida olib kelishadi. Alisher Guliga bo'lgan muhabbatini Husayn Boyqaro oldida ochiq va oshkora tan oladi, uni o'zi bilan birga qo'yib yuborishini so'raydi. Yo'lda Guli vazir bergan zahardan vafot etadi. Alisher yolg'iz yashaydi va qariganida Hirotidagi hovlisiga qaytadi. Film qiziqarli intrigalar asosiga qurilgan. Alisher Navoiy rolini taniqlik aktyor Razzoq Hamroyev ijro etgan bo'lsa, Husayn Boyqaro rolini Asad Ismatov o'ynagan. Ushbu film hozircha Alisher Navoiy haqida yaratilgan yagona o'zbek filmi bo'lib turibdi. Garchi Hazrat Navoiy hayoti va ijodi to'g'risida ko'plab hujjatli filmlar ishlangan bo'lsa-da, kengroq miqyosda to'la metrajli badiiy film va serial yaratilishiga ehtiyoj bor. Chunki ekran san'ati bugun ommabopligi bilan san'atning boshqa turlaridan yaqqol ajralib turadi. Navoiy shaxsini yaqindan tanitish uchun ekran san'atiga murojaat qilish ijobiy samara beradi.

O'zbek she'riyati Navoiy ijodidan ulkan ma'naviy quvvat olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy haqida eng ko'p yozilgan adabyi tur ham she'riyatdir. Har bir o'zbek shoirining Navoiy haqida she'ri, Navoiy haqida o'z aytar so'zi bor. Jumladan, yuqorida tilga olganimiz G'afur G'ulom, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning ham Navoiy haqida bitgan she'rlari shoirning ma'naviy qiyofasini, ijodiy a'molini aks ettirib bera olgan. Abdulla Oripov "Oq ot" nomli she'rida Navoiy hayoti bilan bog'liq bir hikoyatni tilga oladi:

Navoiy "Xamsa"ni tugatdi yozib,  
Qutlashga yig'ildi arkoni davlat.  
Boyqaro ayricha hurmat ko'rgazib,  
Oq otin minishga ayladi da'vat.

Lekin uzr, dedi shoiri davron,



Ehtimol bu holni kibr deb bildi.

Shunda sekingina lutf etdi Sulton:

- Buni otning o‘zi iltimos qildi.[1:152]

Qolaversa, Abdulla Oripovning yoshlik yillarida yozgan “Alisher” she’ri ham har tomonlama mukammal ijod namunasi bo‘lishi bilan birga Hazratga nisbatan cheksiz muhabbat ko‘rinib turadi.

Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi, —

Bariga onasan, ey qodir hayot.

Besh yuz yil naridan boqib turibdi,

Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot. [1:155]

Erkin Vohidovning “O‘zbek Navoiy o‘qimay qo‘ysa” nomli she’rida Navoiyning qadr-qimmatini, undan ayro bo‘lish millat uchun qanday oqibatlariga olib kelishi yumoristik ruhda tahlil qilinadi.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,

Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.

Ma’rifatdan ayri o‘ynasa, kulsa,

Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,

Aldangani, alla bo‘lgani shudir.

Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,

Paytavaning salla bo‘lgani shudir. [2:114]

Darhaqiqat, o‘zbek tarixi va adabiyoti peshonasiga iqbol bo‘lib bitilgan Navoiy deb atalmish ulkan hodisaning ta’siri salkam olti asrdan buyon millat uchun “bemisl ganj” bo‘lib kelmoqda. Ammo bu “ganj”dan bexabarlik, be’etiborlik shu xalqning yutqizig‘i bo‘lishi shubhasizdir. Erkin Vohidov she’rining oxirgi misralari xalqni uyg‘oqlikka chorlaydi:

O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,

Uning «Barakalla» bo‘lgani shudir.

Olamga Navoiy nasliman degan

Ovozi baralla bo‘lgani shudir... [2:114]

Alisher Navoiy roviy sifatida ishtirok etgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlar ham yozilgan. Ushbu asarlar muallifi Shamsiddin Sharofiddin o‘g‘li Xurshid (1892-1960) jadid ma’rifatparvarlarining faollaridan, teatr san’ati ayniqsa G‘ulom Zafariy qatorida o‘zbek musiqali drama janrini qaror toptirishda xizmati beqiyos fidoiylaridan edi.[11:1] Uning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” pyesalari “Halima” bilan birga sahnada musiqali drama talqinlariga asos solgan asarlar edi. “Layli va Majnun” bizda milliy musiqali drama yaratishga havas uyg‘otgan, turtki bo‘lgan yo‘l boshidagi ilk sahna asaridir. Bu havas mashhur ozarbayjon aktyori va rejissori Sidqi Ruhilloning 1917 yili Toshkentga ijodiy safari davrida namoyish qilingan “Layli va Majnun” spektaklidan boshlanadi. 1916 yili, navbatdagi safar davomida “Layli va Majnun”da “Turon” teatri artistlarining Sidqi Ruhillo jamoasiga qo‘shilib rol o‘ynashi bilan davom etdi. Alisher Navoiy asarlariga ixlos qo‘ygan Xurshid 20-yillarning boshlaridanoq sevgi va sadoqatni, do‘stlik va mehnatni ulug‘lagan “Farhod va Shirin” musiqali dramasini yozadi. Asar birinchi marta 1922

yilda Toshkentda, Kolizeyda sahnalashtiriladi. 1929 yilda esa “Farhod va Shirin” dramasi Hamza nomli teatrda Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnaga qo‘yilgan. 1940 yilda esa Xurshidning “Layli va Majnun” pyesasi Glier va T.Sodiqov tomonidan operaga aylantirildi. “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” o‘zbek sahnasida musiqali drama dostonchiligi – sevishtganlar romantik qissasini joriy etib, shu yo‘nalishga yo‘l ochadi.

O‘zbek dramaturgiyasida Navoiy obrazi masalasi nasriy va she‘riy asarlarda gavalangan Navoiy haqidagi tasavvurlarimizni qaysidir ma‘noda davom ettiradi va to‘ldiradi. Uyg‘un hamda Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” besh parda, o‘n ko‘rinishli dramasi, Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” besh parda, o‘n ko‘rinishli tarixiy dramasi, Omon Muxtorning “Amir Alisherning dardi” ikki parda, o‘n ikki holatdan iborat tarixiy dramasi, Komil Avazning “Shoh bo‘ldi ishq ichinda” besh ko‘rinishli musiqiy dramasi, Vosit Sa‘dullaning “Xuroson yulduzi” dramatik poemasi, Iqbol Mirzoning “Samarqand sayqali” bir parda, sakkiz ko‘rinishli dramasi, “Alisherbek va Husayn” yosh tomoshabinlar uchun yetti ko‘rinishli tarixiy pyesasi vositasida o‘zbek dramaturgiyasida Alisher Navoiy obrazining turlicha badiiy talqini yaratildi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, nafaqat Alisher Navoiy ma‘naviy portretini, balki, birinchi va ikkinchi renessans davri mutafakkirlarining ma‘naviy siymolari, ularning qilgan ishlari, ijodiy g‘oyalari mohiyati aks etgan asarlar bugun har doimgidan ko‘proq yaratilishi lozim. Shundagina biz ularni faqat nomi bilan emas, balki, qilgan ishlari va asarlari bilan yoshlarni yaxshiroq tanishtira olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi davlat nashriyoti, 2000. - 432 b.
2. Erkin Vohidov. Saylanma. Umrim daryosi. 3-jild. T.: “Sharq” nashriyoti, 2001. – 271 bet.
3. Muhammad Ali. “Navoiy va Boyqaro”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 6-son, 2016.
4. Omon Muxtor. “Amir Alisherning dardi”. “Yoshlik” jurnali, 2-son, 2011 yil.
5. Muhammad Ali. “Navoiy va Boyqaro”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 6-son, 2016.
6. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 12-tom. T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1978. – 440 bet.
7. Uyg‘un, Izzat Sulton. «Alisher Navoiy». T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976.
8. G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. T: "Sharq" nashriyoti, 2020. - 624 bet.
9. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/xurshid-shamsiddin-sharafiddinov-sherlar.html>